

INGLIZ TILIDA GAPIRISH KO‘NIKMASINI OSHIRISHDA SUN‘IY INTELEKTNING ROLI . YANGICHA YONDASHUV VA METODLAR**Jumayeva Mushtariy Ilhomovna***O‘zbekiston Davlat Jahon tillari universiteti**Xorijiy ingliz tili va adabiyoti 2-fakultet 1-bosqich talabasi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada bugungi rivojlanib borayotgan davrda ingliz tilining ahamiyati haqida so‘z boradi. Bu til dunyo tili sifatida keng qo‘llanilishi natijasida o‘rganuvchilar va so‘zlashuvchilar soni yildan yilga ko‘paymoqda. Bu esa ingliz tilida gapirishga bo‘lgan ehtiyojni sezilarli darajada oshirdi. Maqolamda ingliz tili o‘rganishda yangicha metodlarni qo‘llash hamda samarali yondashuvlar orqali tilni yanada mukammalroq o‘rganish uchun bir qator metodikalar bilan tanishtiraman. Yaqin yillar davomida sun‘iy intellektning rivojlanishi bu jarayonni yengillashtirish uchun bir qator imkoniyatlar eshigini ochdi. AI ya‘ni (Artificial Intelligence) dan nafaqat gapirish ko‘nikmasini rivojlantirish uchun balki tilning murakkab grammatikalaridan tortib, yozish ko‘nikmasi (writing skill) ,umuman olganda tilning hamma jabhalarida bemalol foydalansa bo‘ladi.

Kalit so‘zlar: sun‘iy intellekt (artificial intelligence), recording transcription method, zamonaviy texnologiyalar, " shadowing" texnikasi, subtitr, video va audio materiallar, transkript, ravon nutq

Annotation: This article discusses the importance of the English language in today's rapidly developing world. As English is widely used as a global language, the number of learners and speakers is increasing year by year. This has significantly raised the demand for speaking skills in English. The article introduces modern methods and effective approaches to improve language learning. In recent years, the development of artificial intelligence has opened up new opportunities to facilitate this process. AI (Artificial Intelligence) can be effectively used not only to develop speaking skills but also to improve complex aspects of the language, including grammar and writing skills. Overall, it can be applied in all areas of language learning.

Keywords: artificial intelligence, recording transcription method, modern technologies, shadowing technique, subtitles, video and audio materials, transcript, fluent speech

Аннотация: В данной статье рассматривается значение английского языка в современном быстро развивающемся мире. В связи с широким использованием английского языка как мирового, число изучающих и говорящих на нем ежегодно увеличивается. Это, в свою очередь, значительно повышает потребность в развитии

навыков устной речи. В статье представлены современные методы и эффективные подходы к изучению языка. В последние годы развитие искусственного интеллекта открыло новые возможности для облегчения этого процесса. Искусственный интеллект (Artificial Intelligence) может эффективно использоваться не только для развития навыков говорения, но и для совершенствования сложных аспектов языка, включая грамматику и письменную речь. В целом, его можно применять во всех сферах изучения языка.

Ключевые слова: искусственный интеллект, метод транскрипции записи, современные технологии, техника «shadowing», субтитры, видео- и аудиоматериалы, транскрипт, беглая речь

Ingliz tilida gapirish ko‘nikmasini oshirishning bir qancha bosqichlari mavjud. Ko‘pchilik o‘quvchilar gapirish davomida qiyinchilikka uchramaydi va boshqalarga qaraganda qisqa fursatda tez va ravon gapira oladi, aksincha qolgan o‘quvchilarda esa asosan ,gapirish bilan bog‘liq bo‘lgan tajribalarning kamligi, so‘z boyligining yetishmasligi ,ikkilanish, o‘z fikrini to‘g‘ri yetkazib berishdan qo‘rqish , ingliz tili muhitining yo‘qligi kabi sabablar tufayli ko‘plab muaommolarga duch kelishadi. Ingliz tilida erkin gapirishga mo‘ljallangan bir qator metodlar mavjud hamda ularning har biri gapirish ko‘nikmasini oshirishga sezilarli yordam beradi. Bularidan birini misol qilib keltiradigan bo‘lsam , “Recording transcription method” bunda gapirish mobaynida ovoz to‘liq yozib olinadi keyin esa uni eshitib qaytadan yozib chiqiladi (transcribe) . Bunda grammatika va so‘zni yoki so‘z birikmalarini qayta-qayta takrorlash (repetition) bilan bog‘liq xatolarni aniq ko‘rib chiqish mumkin . Bu metodni qo‘llash natijasida ingliz tilida struktura jihatdan ravon gapirish ko‘nikmasi to‘g‘ri rivojlanadi . Bundan tashqari ,har kuni 1 ta inglizcha maqola o‘qib uni ingliz tili ustozga yoki shu tilni tushunadigan do‘stlarimizga 4-5 daqiqa nutq qilib gapirib berilsa ham o‘quvchilar gapirish davomida g‘oya yetishmasligi hamda to‘xtab qolish (pause) muammolaridan qutulishga ko‘maklashadi.

Xudoyorova Gulasal Ilhomiddin qizining “ Ingliz tilida gapirish ko‘nikmasini rivojlantirish usullari” nomli maqolasida gapirish ko‘nikmasiga to‘sqinlik qiladigan yettita asosiy sababni sanab o‘tgan .

Ular quyidagilardan iborat:

1. Yoshlarda dunyoqarashning torligi, turli xil mavzular ,meditsina ,ta’lim iqtisodiyot, fazo ,atrof-muhit , axborot-texnologiyalari kabi turli sohalarga oid bilimga ega emaslik
2. Ingliz tili muhitining mavjud emasligi
3. Yetarlicha lug‘at boyligiga ega emaslik
4. Yod olib gapirib berishga o‘rganib qolish

5. Gapirish davomida o‘ziga bo‘lgan ishonch yo‘qligi
6. Tartibsiz gapirish (berilgan fikrlarda izchilik yo‘qligi)
7. Omma oldida gapirishga noqulay bo‘lish

Aynan shu muammolarni yechish maqsadida men o‘nga yaqin talabalar o‘rtasida yuqoridagi metoddan foydalanib tajriba o‘tkazdim . Natijada talabalarda bu bilan bog‘liq kamchiliklarning deyarli 70-80 foizi o‘z yechimini topdi . Shundan kelib chiqqan holda bu metoddan to‘g‘ri foydalana olish xuddi ingliz tili o‘z ona tilisi bo‘lgan mahalliy aholi ya‘ni (native speaker)lardek gaplasha olish imkonini yaratadi.

Karimbayeva Mardonaning “Gapirish ko‘nikmasini shakllantirishda zamonaviy texnologiyalarning ahamiyati “ nomli maqolasida bularga bog‘liq bir nechta tajribalar keltirilgan. Ularning birida shunday yozadi: “Ayni damda sun‘iy intellekt barcha jabhada insonlarga ko‘maklashmoqda.U bir qator funksiyalarga ega bo‘lib,talabalarining gapirish ko‘nikmasini rivojlantirishda samarali yordam berib kelmoqda.Aynan o‘zimdanda misol qilib keltirishim mumkinki,har kuni chatgpt bilan30-40 daqiqa ingliz tilida fikr almashish orqali o‘z darajamni ancha ko‘tara oldim. Bular quyidagilardan iborat.Sun‘iy intellekt hech bir xatoyingizni o‘tkazib yubormaydi hatto mayda detallargacha.U o‘rganuvchilarga artikllarni so‘zlash davomida ishlatishdan tortib murakkab gap tuzilmalarigacha eng yaxshi shakllarini taqdim qiladi.Bundan tashqari,so‘zlarning talaffuzlarini ham (native speaker)ingliz tili ona tili bo‘lgan odamlarniki kabi chiroyli va ravon qilishga yordam beradi “ .

Mamatqulova Dilmuranning “ Ingliz tili o‘rganuvchilari orasida gapirish ko‘nikmasini shakllantirishda shadowing texnikasini qo‘llash “ nomli maqolasida shunday yozadi “Shadowing” bu...”Shadowing” so‘zini ingliz tilidan tarjima qiladigan bo‘lsak, “soyadek ergashish” degan ma‘noni anglatadi. Demak, bunda siz boshqa bir so‘zlovchining nutqiga ergashish orqali o‘z nutqiy kamchiliklaringizni to‘ldirasiz. Ayrim o‘rinlarda ushbu texnika “imitating technique” yoki “imitation technique” nomlari bilan ham keladi. 1. J. Mullard, A. Yuliya. (2015). Exploring the Effectiveness of Extensive Listening in the Development of L2 Listening Fluency. Bu jumalalar taqlid qilish degan ma‘noni beradi. “Shadowing” bir vaqtning o‘zida ham tinglash, ham gapirish ko‘nikmasining rivojlantirishni rag‘batlantiradi. Ingliz tilida biz ko‘p duch kelgan shunday jumla bor: “A good listener is a good speaker”, yani “Yaxshi tinglovchi yaxshi so‘zlovchi (notiq)dir. “Shadowing” texnikasi bu gapning nihoyatda to‘g‘riligini isbotlab beradi.Dastlab ingliz tilidagi video yoki audio material tanlanadi. Avval audio (video) shunchaki transkripsiz (subtitrsiz) to‘liq tinglanadi. Keyin transkript (subtitrlar) bilan tinglanadi va har bir gapdan so‘ng pauzaqilinib, ortidan takrorlanadi. Bir marta tugatgach transkripsiz (subtitrlarsiz) takrorlashga o‘tiladi. Bunda audio yoqilib, har bitta gap transkripsiz (subtitrlarsiz) eshitilib takrorlanadi.

Xulosa o‘rnida shuni aytib o‘tish lozimki, yuqoridagi metodlar orqali har xil yoshdagi til o‘rganuvchilar, talabalar, maktab o‘quvchilari, o‘qituvchilar ham gapirish ko‘nikmasini sezilarli darajada oshirishlari va mustaqil gaplasha oladigan darajaga yetishlari mumkin. “Recording transcription” metodi orqali ko‘plab o‘rganuvchilar yaxshi natijalarga erishgani bu usul to‘g‘ri tanlov ekanligining isbotidir

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mukaramxodjayeva T.Y “Semantic relationships of phraseological units in English: polysemy and homonymy” So‘z san’ati xalqaro jurnali, 7 jild 2 son, Toshkent,
2. Xudoyorova, G. I. (2024). View of INGLIZ TILIDA GAPIRISH KO‘NIKMASINI RIVOJLANTIRISH USULLARI. International Journal of Pedagogical Research, 4(2). Retrieved from <https://interoncof.com/index.php/spain/article/view/6011/5440>
3. Bozorova, M. T. (2023). KASBGA YO‘NALTIRILGAN MULOQOT KO‘NIKMALARINING MAZMUN-MOHIYATI. Retrieved from <https://www.orientalpublication.com/index.php/iscrc/article/view/1256/1094>
4. Nguyen Van Huy. The effectiveness of applying shadowing technique to improve speaking skills of non-English-majored freshmen at Dong Nai Technology University. Journal of Information Systems Engineering and Management. Vol 10(45). 2025.
5. N.M.E. Junipsa, I.N.Aristana. Shadowing technique to improve student’s listening skill. Jurnal Pendidikan Bahasa Inggris Undiksha. Vol 9, num 2, 2021, pp 134 -139
6. O‘. Hoshimov, I. Yoqubov. Ingliz tili o‘qitish metodikasi. “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. Toshkent. 2003.
7. U. Bolbekova. The role of shadowing educational technology in developing oral speaking competence in English teaching. Tamaddun nuri jurnali. Vol 57, num 6, 2024.
8. Mamatqulova Dilnura Mirtemir qizi [Tom 1 № 3\(2025\): КОНФЕРЕНЦИЯ СОВРЕМЕННОЙ НАУКИ И ПЕДАГОГИКИ](#) 2025-06-15
9. Karimbayeva Mardona Ravshanbek qizi <https://worldlyjournals.com/index.php/ituy/article/view/10465> 2025-10-13